



TARJIMA–SO‘ZGA JON BAXSH ETISH SAN’ATI

Egamberdiyeva I.A

ADCHTI dotsenti

Mirfozilova Guloyim

ADCHTI talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjima tushunchasi to‘g‘risida so‘z yuritiladi hamda ushbu jarayondagi ayrim muhim detallarga alohida to‘xtalib o‘tiladi. Shu bilan birgalikda tarjima jarayonining san’ati darajasidagi ahamiyati ham yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: tarjima, san’at, ijodiy tarjima, erkin tarjima, ibora, frazeologik birikma.

Аннотация: В данной статье рассматривается понятие перевода, а также уделяется особое внимание некоторым важным аспектам этого процесса. Кроме того, раскрывается значение перевода как искусства.

Ключевые слова: перевод, искусство, творчество перевод, свободный перевод, фраза, фразеологизм.

Annotation: This article examines the concept of translation, addressing key aspects of the process, and focusing on significant details. It also discusses the importance of translation in the context of its artistic level and its role as a scholarly discipline.

Key words: translation, art, creative translation, free translation, phrase, and idiomatic expression.

Hozirgi kunda insoniyat shunday davrdaki, har bir sohada misli ko‘rilmagan yangiliklar, kashfiyotlar kundan-kunga ko‘payib bormoqda. Albatta, ushbu kashfiyotlarning negizi turli xil davlatlarga borib taqaladi va yangilik qilgan olimlar o‘z ishlarini o‘zining davlat tilida olib boradilar. Insoniyatga ma’lumki, dunyoda 7000 dan



ziyod til mavjud va ularni barchasini tushunish mushkul. Shunday bo'lsada, boshqa bir davlatdagi ixtirodan yana biri ham xabardor bo'la olishiga, yoxud dunyo sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shayotgan omil–tarjima jarayoni hisoblanadi. Ushbu jumalardan ko'rinib turibdiki, bu jarayon keng e'tiborga loyiqdir.

Tarjima jarayoni haqida turli xil mulohazalar berishdan avval, albatta, uning ma'nosiga e'tibor berish lozim. Tarjima – bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. [4] Ushbu ijod turi turli xil tarixiy bosqichlardan o'tib kelgan muhim jarayondir. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, ushbu ijodiy ish bilan hamma ham shug'ullana olmaydi. Asl tarjima san'atini talab darajasida bilimi bor va bu jarayonga chin qalbdan yondashuvchi insonlargina bu sohaning eng yetuklari bo'lib yetisha oladilar.

Ayrim insonlar tarjima – shunchaki so'zlarni ma'lum bir tilga tarjima qilib qo'yish deb hisoblaydilar va albatta, bu fikrlari bilan katta xatoga yo'l qo'yadilar. Aslida esa bu jarayon tarjimashunoslardan yuqorida aytib o'tilgani kabi juda katta bilim va tajriba talab qiladi. Tarjima jarayoni to'g'risidagi fikrlardan birida shunday deyiladi– “Tarjima ishi bilan shug'ullanuvchi tarjimonning estetik ehtiyoji uning ixtiyoridan tashqari, tarjimada iz qoldiradi. Yozuvchi hayot voqealaridan olgan mushohadalarini tilda badiiy ifodalasa, tarjimon asl matnini yangi til vositasida qayta gavdalantiradi. Buning uchun u asarda tilga olingan voqelikning muallif darajasida puxta bilishi kerak”. [4] Ushbu fikrlari orqali yana bir narsa ayonki, tarjima qilish nafaqat bir jarayon balki beqiyos san'at turi hamdir. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, san'at–ijtimoiy ong shakllaridan biri, insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi, dunyoni amaliy-ma'naviy anglashning turi hisoblanadi. [1] Shunday ma'naviyatga boy turga mansub bo'lgan tarjima jarayoni esa aytib o'tilganidek ma'naviyatimizga cheksiz ta'sir ko'rsatuvchi– so'zga jon baxsh etuvchidir.

O'z o'rnida bu jarayon ham turli xil guruhlariga bo'linadi va shuni ham aytib o'tish kerakki bu guruhlar ham jahon sivilizatsiyasi natijasida turli xil davr insonlari tomonidan turlicha talqin qilingan. Umumiy qilib olganda, asosan tarjima jarayonining



ijodiy, soʻzma soʻz, erkin, obrazlashtirilgan, moslama, mualliflashtirilgan, akademik va vositachi kabi turlari mavjud. [2] Albatta, bu tarjima jarayonining guruhlari bunday nomlanishi bejizga emas. Masalan, ijodiy tarjima turida tarjimon asosan grammatik qoidalarga katta eʼtibor qaratadi, erkin tarjimonlik jarayonida esa oʻz nomidan ayonki, tarjimon oʻzi istagan holida ish olib borishi mumkin.

Tarjimon bu jarayonning qaysi turida ish olib bormasin barchasida “soʻz” bosh omil hisoblanadi. Chunki har bir turda, umuman olganda tarjimashunoslikdagi eng muhim detallardan biri, aniqrogʻi davrimizdagi tarjima sohasidagi muhim muammoga ham aylanib qolgan— toʻgʻri soʻzni tanlay olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday kerakli narsa oʻz oʻrnida muammo boʻlib ham kelayotganining sabablaridan biri. Agar tarjima qilinayotgan narsa ilmiy boʻlsa, bir soʻz notoʻgʻri tarjima qilinganligi sababli insonlar uni boshqa mazmunda tushunishlari va shu sabab ilm-fanda sezilarli kamchiliklar kelib chiqishi mumkin. Yoki badiiy turga oid narsa boʻlsa, soʻz toʻgʻri tanlanmasa oʻquvchilarning bu asarga boʻlgan qiziqishlari soʻnishi va asarda tushunmovchilik yuzaga kelishi mumkin yoki asar oʻzining kuchini yoʻqotish ehtimoli mavjud. Badiiy qoʻllanmalarda tarjimachilik uchun zarur boʻlgan yana muhim tushunchalar ham mavjud boʻlib, bular iboralar va frazeologik birikmalardir. Frazeologizm, frazeologik birlik, frazema - ikki yoki undan ortiq soʻzdan tashkil topgan, maʼnoviy jihatdan oʻzaro bogʻliq soʻz birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha koʻchma maʼnoda qoʻllanadigan va boʻlinmaydigan, barqaror (turgʻun) bogʻlanmalarning umumiy nomi. [3] Ushbu satrlardan maʼlumki, frazeologizmlar asosan koʻchma maʼnoda qoʻllaniladi va bu narsalarni shunchaki soʻzma-soʻz tarjima qilish katta xatolikka sabab boʻladi. Mana shunday holatlarda maʼlum bir xalqning koʻchma maʼnodagi soʻzlarini tarjimonlik orqali xuddi shu soʻzlarga boshqa xalq tilidan jon baxsh etiladi. Misol uchun ingliz tilidagi “live and breathe” frazeologik iborasini olaylik, soʻzma soʻz tarjima qilinganda oddiygina maʼnoni yaʼni “yashamoq va nafas olmoq” maʼnosini anglatadi. Biroq ushbu soʻzlarning birlikdagi fraza boʻlib kelgandagi



tarjimasi “butun hayotni bag‘ishlamoq” dir. Ko‘rinib turibdiki bu jarayonda har bir kichik detall ham katta ahamiyatga ega va har bir so‘zning o‘z ma‘nosini bor.

Xulosa qilib aytganda, tarjima jarayoni bir tilda yozilgan manbani boshqa til ko‘rinishiga keltirishdir. U shunday muhim jarayonki, allaqachon ma‘lum bir tilda biror kashfiyot yoki qo‘llanma yaratilib bo‘lingan, ammo bu tilni tushunmaydigan insonlar uchun bu narsa yaratilmagan misoli. Shuning uchun ham tarjima jarayoni orqali har bir so‘zga yangi jon baxsh etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Kamilov. “Tarjimonlik va tarjima faoliyati”, Toshkent, O‘zbekiston, 2008.
2. Eugene Nida, Charles Taber. “Foundation of translation and theory”, Niderlandiya, 2013
3. R. Sultonov. “Tarjima nazariyasi”, Toshkent, O‘zbekiston, 2015.
4. X. Yuldashev. “Tarjimonlik san’ati”, Toshkent, Sharq, 2013.
5. Sh. Ibragimov. “Tarjimashunoslik asoslari”, Toshkent, O‘zbekiston, 2012.

Foydalanilgan internet tarmoqlari:

1. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/adabiyot/san-atning-turlari>.
2. <https://econferenceseries.com/index.php/icmsss/article/download/3975/3867/3973>.